

SHARQIY YEVROPADAGI SIYOSIY JARAYONLARDA POLSHANING ISHTIROKI VA IQTISODIY TARAQQIYOTI (1918-1939 YILLAR)

Ziyovadinova Mohidil Mirshakar qizi

Buxoro davlat universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21168418>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1918–1939-yillarda Polsha davlatida yuz bergan iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar Sharqiy Yevropa mintaqasidagi jarayonlar kontekstida tahlil qilinadi.

Birinchi jahon urushidan keyin Polsha davlatchiligining tiklanishi, davlat boshqaruvi tizimining shakllanishi, iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari hamda "sanatsiya" siyosatining mamlakat taraqqiyotiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sharqiy Yevropa, Polsha Respublikasi, iqtisodiy islohotlar, siyosiy beqarorlik, Yuzef Pilsudskiy, sanatsiya rejimi, ikki jahon urushi oralig'i, agrar islohotlar, milliy bozor, xalqaro munosabatlar.

Kirish. Birinchi jahon urushi yakunlangach, Yevropa siyosiy xaritasida ulkan geosiyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Asrlar davomida mintaqada hukmronlik qilib kelgan Rossiya, Avstriya-Vengriya va Germaniya imperiyalarining qulashi natijasida Sharqiy va Markaziy Yevropada bir qator yangi mustaqil davlatlar tashkil topdi.

Bu tarixiy jarayonda, xususan, 123 yillik hududiy taqsimotlar va qaramlikdan so'ng o'zining milliy davlatchiligini qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan Polsha Respublikasining ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy taraqqiyot yo'li alohida ilmiy ahamiyatga ega. 1918-1939-yillarni o'z ichiga olgan ikki jahon urushi oralig'idagi davr Polsha uchun g'oyat ziddiyatli, murakkab islohotlar, o'tkir ijtimoiy muammolar hamda keskin siyosiy kurashlar davri bo'ldi.

Yosh davlat o'zining ilk yillaridanoq vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash, avval uchta turli xil imperiya tarkibida bo'lgan va turlicha rivojlangan hududlarni yagona iqtisodiy tizimga birlashtirish, milliy bozorni shakllantirish, mustahkam valyutani joriy etish kabi o'ta og'ir vazifalarni hal etishiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, mamlakat ichidagi siyosiy partiyalar o'rtasidagi kuchli kelishmovchiliklar, tez-tez o'zgarib turgan parlamentar hukumatlar inqirozi va keyinchalik 1926-yilda Yuzef Pilsudskiy tomonidan o'rnatilgan "sanatsiya" avtoritar boshqaruv rejimi mamlakatning siyosiy qiyofasini butunlay o'zgartirib yubordi [1; 308 b.]

Ushbu maqolada Sharqiy Yevropadagi post-imperatorlik hududida paydo bo'lgan yosh davlatlarning shakllanish mashaqqatlari va ziddiyatlari Polsha davlati misolida, uning 1918-1939-yillardagi o'ziga xos iqtisodiy va siyosiy evrilishlari fonida yaxlit ilmiy tahlil qilinadi. Bu davrni o'rganish mintaqadagi davlatlarning xalqaro inqirozlar va murakkab ichki ziddiyatlar sharoitida qanday strategiyalarni qo'llaganini anglash imkonini beradi.

1918-1939-yillarda Sharqiy Yevropa davlatlari, xususan, Polshadagi iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar masalasi jahon tarixshunosligida qator xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan turli xil yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. O'zbekiston tarixshunosligida, ayniqsa, 2000-yildan keyin nashr etilgan fundamental o'quv adabiyotlari va monografik tadqiqotlarda ikki jahon urushi oralig'idagi Yevropaning geosiyosiy qiyofasi, yangi mustaqil davlatlarning tashkil topish jarayonlari ma'lum darajada o'rganilgan. Xorijiy tarixshunoslikda esa, xususan, Norman Devis (Norman Davies) kabi yirik olimlarning asarlarida Polsha Respublikasining XX asrdagi ziddiyatli davlatchilik tarixi, Yuzef Pilsudskiyning siyosiy portreti hamda "sanatsiya" (sog'lomlashtirish) rejimining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari batafsil yoritib berilgan [1; 308-315-b.].

Polshalik iqtisodchi va tarixchilar o'z izlanishlarida 123 yillik parchalanishdan so'ng uch xil turdagi imperiya (Rossiya, Germaniya, Avstriya-Vengriya) infratuzilmasi negizida yagona iqtisodiy tizim va milliy bozorni yaratish mashaqqatlarini chuqur tahlil qilganlar. Shunga qaramay, mazkur masalani, ayniqsa, mintaqadagi iqtisodiy beqarorlikning avtoritar rejimlarni yuzaga keltirishdagi o'rmini yaxlit tizim sifatida kompleks tadqiq etish bugungi kunda ham ilmiy dolzarbligini yo'qotmagan. Ushbu maqolani tayyorlashda tarixiy jarayonlarni xolis hamda haqqoniy yoritish maqsadida tarix fani va iqtisodiyot nazariyasining bir qator yetakchi metodlaridan foydalanildi. Avvalo, tarixiy-xronologik metod yordamida Polsha davlatining 1918-yildan 1939-yilgacha bo'lgan davrdagi siyosiy inqirozlari, parlamentar boshqaruv inqirozi va avtoritar tuzumning o'rnatilishi bosqichma-bosqich kuzatildi. Qiyosiy-tarixiy metod orqali Polshadagi islohotlar va ularning oqibatlari Sharqiy Yevropadagi boshqa mamlakatlar rivojlanish tendensiyalari bilan solishtirilib, ularning o'ziga xos va umumiy jihatlari ajratib ko'rsatildi.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini qayta tiklash, agrar islohotlar natijalari, milliy valyutani barqarorlashtirish hamda sanoat ko'rsatkichlaridagi o'sish va inqirozlarni tahlil qilishda statistik hamda tizimli-strukturaviy tahlil usullaridan keng foydalanildi. Tashqi siyosiy xavfsizlik masalalari hamda qo'shni davlatlar bilan olib borilgan murakkab diplomatik aloqalar muammoli-xronologik yondashuv orqali tadqiq etildi. Ushbu kompleks metodlar majmuasi ikki jahon urushi oralig'idagi Sharqiy Yevropa tarixining muhim tarkibiy qismini tashkil etuvchi Polshadagi evrilishlarni obyektiv va keng qamrovli baholash imkonini berdi.

1918-1939-yillarda Polsha davlatida amalga oshirilgan iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni tahlil qilish orqali mintaqa tarixiga oid bir qator muhim ilmiy-nazariy natijalarga erishildi. Eng avvalo, 123 yillik qaramlikdan so'ng qayta tashkil topgan yosh Polsha davlati iqtisodiyotining eng katta fojiasi – avval uch xil imperiya tarkibida turlicha iqtisodiy qonuniyatlar va infratuzilma asosida shakllangan hududlarni (Rossiya, Germaniya, Avstriya-Vengriya qismlari) yagona, markazlashgan milliy bozorga birlashtirishdagi o'ta murakkab inqirozli holat ekanligi dalillandi [5, 72-b.].

Bu davrda transport logistikasi, soliq tizimi va qonunchilikdagi chuqur tafovutlarni bartaraf etish hukumatdan ulkan ma'muriy hamda moliyaviy resurslarni talab qildi. Iqtisodiy tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, V. Grabskiyning valyuta islohoti (1924-yil) va yangi milliy pul birligi – zlotiyni joriy etilishi mamlakatni giperinflatsiya yoqasidan olib chiqqan bo'lsa-da, 1929-1933-yillardagi Jahon iqtisodiy inqirozi (Buyuk depressiya) Polsha qishloq xo'jaligi va sanoatiga og'ir zarba berib, ishsizlik darajasini keskin oshirib yubordi. [5, 88-90-b.].

Siyosiy sohada olingan natijalar Sharqiy Yevropadagi yosh demokratiyalar tarixidagi umumiy qonuniyatni namoyon qildi: mamlakatdagi surunkali iqtisodiy beqarorlik va ko'ppartiyaviylik asosidagi parlamentar inqirozlar (1918-1926-yillar oralig'ida o'nlab hukumatlarning almashinishi) oxir-oqibat avtoritar boshqaruvga ehtiyojni yuzaga keltirdi. 1926-yil may oyida Yuzef Pilsudskiy tomonidan amalga oshirilgan harbiy davlat to'ntarishi va o'rnatilgan "sanatsiya" (jamiyat va iqtisodiyotni sog'lomlashtirish) rejimi aslidagi iqtisodiy tanglikni siyosiy diktatura hamda markazlashuv yo'li bilan yumshatishga qaratilgan harakat ekanligi isbotlandi. Garchand 1930-yillarning ikkinchi yarmida Yevgeni Kvyatkovskiy tashabbusi bilan Markaziy sanoat okrugini (COP) barpo etish kabi keng ko'lamlı strategik loyihalar orqali davlat mudofaa sanoati va infratuzilmasida sezilarli iqtisodiy o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, bu ijobiy natijalar mamlakatning G'arbiy va Sharqiy hududlaridagi geosiyosiy xavflarga dosh bera oladigan darajada barqaror emas edi.

Xulosa o'rnida qayd etish mumkinki, tahlil qilingan davr mobaynida Polsha misolida Sharqiy Yevropa davlatlari milliy iqtisodiyotni tiklash hamda hududiy yaxlitlikni saqlash masalasida zaif parlamentar demokratiyadan voz kechib, avtoritar markazlashuvni yagona najot yo'li sifatida tanlashga majbur bo'lganliklari o'zining ilmiy tasdig'ini topdi.

Ikki jahon urushi oralig'ida Polshada yuz bergan iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tadqiq etish mintaqadagi boshqa davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinganda, bir qator bahsli va e'tiborga molik xulosalarni keltirib chiqaradi. Xorijiy tarixshunoslikda Yuzef Pilsudskiyning 1926-yilda o'rnatgan "sanatsiya" rejimi ko'pincha qattiqqo'l harbiy diktatura hamda demokratik tamoyillarning chekinishi sifatida baholanadi. Biroq mazkur o'zgarishlarni butun Sharqiy Yevropa hududidagi jarayonlar (masalan, Vengriyadagi Miklosh Xorti yoki Bolqon davlatlaridagi monarxik avtoritarizm) fonida o'rganganda, bu voqelikni faqatgina bitta mamlakatga xos bo'lgan o'zgarish emas, balki mintaqadagi yosh davlatlarning o'tish davriga xos umumiy siyosiy qonuniyat sifatida baholash obektivroq bo'ladi.

Chexoslovakiyani istisno qilganda, qariyb barcha yosh milliy davlatlarda zaif parlamentarizm sharoitida kuzatilgan chuqur iqtisodiy tushkunlik, ko'ppartiyaviylik va muttasil hukumat inqirozlari oxir-oqibat ijtimoiy portlashlarning oldini olish maqsadida markazlashgan avtoritar hokimiyatga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni keltirib chiqargan. Iqtisodiy sohadagi muhokamalar diqqat markazida esa Polshaning uch xil imperiya asoratidan qutulib, yagona infratuzilmaga ega milliy bozor yaratish mashaqqatlari turadi. Garchi davlat 1929-1933-yillardagi Buyuk tushkunlik davrining agrar sohaga bergan og'ir zarbalarini to'laqonli yengib o'ta olmagan bo'lsa-da, Yevgeni Kvyatkovskiy kabi yetakchi iqtisodchilarning Markaziy sanoat okrugini barpo etish kabi strategik loyihalari mamlakatning og'ir agrar xarakterdan industrial-agrar jamiyatga o'tishida hayotiy ahamiyat kasb etdi.

Biroq asosiy munozara nuqtasi shundaki, Polshaning 1930-yillar oxiriga kelib ichki iqtisodiy va siyosiy jihatdan nisbatan barqarorlashuvi uning milliy xavfsizligini to'la kafolatlay oldimi? Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, mintaqadagi davlatlarning ichki islohotlari qanchalik izchil bo'lmasin, ular yirik geosiyosiy kuchlar, xususan, natsistik Germaniya va SSSR o'rtasidagi tajovuzkor manfaatlarga qarshi turish uchun yakkahol holda mutlaqo ojiz edi.

Demak, 1918-1939-yillardagi Sharqiy Yevropa davlatlari tarixi shuni uqtiradiki, yosh mustaqil respublikalarning faqat ichki ma'muriy markazlashuv va milliy iqtisodiyotni safarbar etish hisobiga yashab qolish strategiyasi mustahkam tashqi geosiyosiy kafolatlar tizimi mavjud bo'lmagan sharoitda baribir muvaffaqiyatsizlikka mahkum bo'lib qolaveradi.

Xulosa qilib aytganda, 1918-1939-yillarda Polsha davlati misolida Sharqiy Yevropadagi iqtisodiy-siyosiy jarayonlarni o'rganish yosh respublikalarning shakllanishidagi o'ta murakkab va ziddiyatli o'tish davrini namoyon etadi.

Yuz yildan ortiq qaramlikdan so'ng uch xil turdagi imperiya asoratidan qutulib, yagona milliy bozor va mustahkam iqtisodiyotni yaratish yo'lidagi islohotlar ulkan mashaqqatlar bilan kechdi. Mamlakatdagi uzluksiz iqtisodiy inqirozlar va siyosiy kuchlar o'rtasidagi murosasiz ixtiloflar zaif parlamentar demokratiyaning qulashiga hamda oxir-oqibat Yuzef Pilsudskiyning "sanatsiya" deb ataluvchi avtoritar rejimining o'rnatilishiga olib keldi. Tahlillar bu holat faqat bitta davlat uchun emas, balki butun mintaqa uchun xos bo'lgan obektiv siyosiy qonuniyat ekanligini tasdiqladi. Garchi davlat 1930-yillarning oxiriga kelib yirik sanoat loyihalari orqali muayyan iqtisodiy barqarorlik va ma'muriy markazlashuvga erishgan bo'lsa-da, bu natijalar tashqi xavfsizlikni ta'minlay olmadi.

Tarixiy tajriba shuni aniq ko'rsatadiki, Sharqiy Yevropaning yosh davlatlari faqat ichki iqtisodiy safarbarlik va qattiqqo'l siyosiy markazlashuv hisobiga yashab qolishga uringan bo'lsalar-da, mustahkam xalqaro geosiyosiy kafolatlarsiz, kuchli va tajovuzkor qo'shnilar tahdidi oldida baribir muvaffaqiyatsizlikka mahkum edilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Davies, N. God's Playground: A History of Poland, Vol. 2: 1795 to the Present / N. Davies. – Oxford : Oxford University Press, 2005. – 616 p.
2. Ergashev, Sh. Jahon tarixi (1914–1939-yillar) / Sh. Ergashev. – Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 400 b.
3. G'afforov, Ya. Jahon tarixi (Eng yangi davr) / Ya. G'afforov. – Toshkent : O'qituvchi, 2002. – 384 b.
4. Lukowski, J. A Concise History of Poland / J. Lukowski, H. Zawadzki. – Cambridge : Cambridge University Press, 2001. – 356 p.
5. Matveyev, G. F. Istoriya yujnix i zapadnix slavyan : v 2 t. T. 2. / G. F. Matveyev, Z. S. Nenasheva. – Moskva : Izdatelstvo MGU, 2008. – 368 s.
6. Prażmowska, A. A History of Poland / A. Prażmowska. – London : Palgrave Macmillan, 2011. – 264 p.
7. Raximov, M. A. Jahon tarixi: Yevropa va Osiyo mamlakatlari (1918–1939-yillar) / M. A. Raximov. – Toshkent : Universitet, 2018. – 240 b.